

BOBURIYLAR DAVRI MADANIYATLARARO MULOQOTIDA TURKIY TILNING MAVQEYI

G. Xoliqulova ¹

Annotatsiya:

Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari hukmronligida Hindistonda forsiy, hindiy, urdu, turkiy, arab tillari muloqot tili sifatida xizmat qildi. Mazkur tillar madaniyatlararo muloqotni ham ta'minladi. Adabiy muhitda ham shu tillarda ijod etildi. Ayniqsa, turkiy va forsiy tillarga asoslangan ikkitillilik - zullisonaynlik hodisasi vujudga keldi, turkiy tildagi muloqot va adabiyotning teritoriyasi kengaydi, Hindistonga qadar yoyildi. Mazkur maqolada shu xususdagi ma'lumotlar berildi va tahlillar asosida xulosalar chiqarildi.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Hindiston, madaniyatlararo muloqot, adabiy muhit, ikkitillilik – zullisonaynlik, turkiy va fors adabiyot.

doi: <https://doi.org/10.2024/jqojzq39>

Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari hukmronligi davri (1526-1858) da Hindistonda muloqot va ijod tili sifatida forsiy, hindiy, urdu hamda turkiy tillaridan foydalanildi. Turkiy (o'zbek, eski o'zbek tili, chig'atoy turkiysi) va forsiy tillarda muloqot va ijod etish Bobur hukmronligida ancha yetakchi edi. Chunonchi, turkiy tilning Bobur saroyida muloqot tili sifatida amal qilishi, hukmdor hamda ijodkor Boburning, asosan, turkiy tilda qalam tebratishi va adabiy merosini o'z davridayoq ko'plab kitobxonlar tomonidan sevib o'qilishi adabiy muhitga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Turkiy tildagi adabiyot boshqa tillardagi adabiyot bilan yonma-yon holatda rivojlandi, forsiy-turkiy tillarga asoslangan zullisonaynlik an'anasining shakllanishiga imkon yaratildi. Natijada hind adabiy muhitidagi forsiy-hindiy, forsiy-urdu tillariga asoslangan zullisonaynlik safi forsiy-turkiy tillardagi ikkitillilik bilan boyidi, rang-baranglashdi.

XVI-XVIII asrlarda yaratilgan tarixiy, adabiy manbalar, qo'lyozma asarlardagi ma'lumotlarga tayanib aytish mumkinki, turkiy til asosan Bobur (1526-1530), Humoyun (1530-40 - 1556) hukmronligi davrida ularning va ular atrofidagi Bayramxon, Komron Mirzo, Shayx Zayn, Xo'ja Kalon, Turdibek Xoksor, Forig'iy, Bahrom Darvesh Saqo kabi turkiygo'y ijodkorlarning sa'y-harakatlari bilan adabiy muhitda yetakchi tillardan biriga aylandi, lekin davlat tili darajasiga ko'tarila olmadi. Boburning qisqa muddatli hukmronligi davrida Hindiston adabiy muhitiga kirib kelgan turkiy til, Humoyun Mirzo hukmronligi davrida ham adabiy muhitning yetakchi tillaridan bo'ldi.

¹ Xoliqulova Gulsanam Yorqulovna, Sharof Rashidov nomidagi SamDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi (O'zbekiston)

Humoyun Mirzo turkiy tilga va shu tildagi adabiyotga ham bee'tibor bo'lmagan, aksincha, o'z ajdodlari tilini qo'llab-quvvatlagan, o'z saroyida shu tilda ijod etishga sharoit yaratgan. Bu haqda "Humoyunnoma" tarjimasining so'zboshisida tarixshunos olim, akademik S.Azimjonova alohida to'xtalib, shunday yozadi: "Bobur vafotidan so'ng davlat tili garchi fors tili hisoblansa ham, Humoyun saroyida o'zbek tilida gaplashganlar va «chig'atoy» tili deb yuritilgan eski o'zbek tilida she'r yozgan shoirlar ham bo'lgan". [4, 1998: 25]

Xuddi shunday ma'lumot turk admirali Seydi Ali Raisning "Mir'otul mamolik" ("Mamlakatlar ko'zgusi") asarida ham uchraydi. Seydi Ali Rais "Mir'otul mamolik" asarida boburiylar davri adabiy muhiti, bu adabiy davrning yirik vakillari haqida batafsil to'xtalib o'tmagan bo'lsa-da, Humoyun podshoh saroyida qisqa muddatgina yashagan davrida ko'rgan-kechirganlarini yozib qoldirgan. U saroyda bo'lib o'tgan adabiy davralarda, oliy majlislarda ishtirok etgan. O'z ko'rganlari asosida hukmdor Humoyun Mirzoning ilm-fan, san'at, adabiyotga qo'shgan ulkan hissasi, xizmatlari va turkiy tilga bo'lgan e'tiborini o'rinli e'tirof etgan. [9, 1963]

Boburiyoda hukmdorlardan Akbar davri (1556-1605)da O'rta Osiyodan ilm-fan, madaniyat, adabiyotning eng ko'p sonli vakillari kirib kelgan bo'lsa-da, turkiy tilga bo'lgan e'tibor ancha pasaydi, forsiy til davlat tili darajasida bo'lgani holda saroyda ham muloqot tili vazifasini bajardi. Lekin turkiy til butunlay unutilmadi. Bu davrda "Boburnoma"ni birinchi marta Abdurahimxon tomonidan forsiy tilga tarjima qilinishi yoki uning hindiy, arab, fors tillari qatorida "...Navoiy oldida bosh egib, turkiyda ulug' shoirga ergashib she'rlar yozgani"ning [2, 1968: 121] o'ziyoq har ikki til (turkiy va forsiy)ning yetuk mutaxassislar mavjudligini ko'rsatadi.

Jahongir va Shohjahon davrida O'rta Osiyodan o'z davrining taniqli olimlari, shoirlari va boshqa mashhur shaxslari Hindistonga Akbar hukmronlik qilgan yillarga nisbatan kam sonli tashrif buyurgan bo'lsa-da, lekin saroyda turkiy til butunlay unutilmadi. Bu haqda biz Abdusattor bin Qosim Lohuriyning 1612-yili Agra shahrida yaratgan "Majolisi Jahongiriy" nomli asaridan ma'lumot olamiz. "Majolisi Jahongiriy"ning ko'plab o'rinlarida ham Jahongirning saroydagi asli balxlik va movarounnahrlik amaldorlar, Samarqand, Buxorodan kelgan davlat elchilari va sayyohlar bilan faqat turkiy tilda gaplashgani alohida qayd etilgan. [1, 2006]

Shunga muvofiq ma'lumot Jahongir bin Akbarning "Jahongirnoma" ("Tuzuki Jahongiriy") asarida ham uchraydi. Asarda yozilishicha, Totorxon laqabli Tatarbek bin Ali Muhammad Akbar podshohning saltanati oxirlarida (1605) Shohjahon bin Jahongir (Shahzoda Xurram, 1628-1658)ga turkiy til o'rgatuvchi muallim qilib tayinlangan. Jahongir bin Akbar davrida ham u saroyda turk tilidan muallimlik qilish bilan birga "bakovulbegi" kabi boshqa katta mansab va mukofotlar bilan taqdirlangan. [3, 2018: 23-27] Demak, Jahongir ham, uning o'g'li Shohjahon ham turkiy tildan bebahra bo'lmagan. Aksincha, saroyda shahzodalarning turkiy tilda tahsil olishlari uchun muallimlar tayinlangan.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Akbar va uning vorislari Jahongir, Shohjahonlar davrida turkiy tilga bo'lgan e'tibor birmuncha pasaygan bo'lsa, nega bu tilda tahsil olish an'anasi saqlab qolingan? Bunga sabab XVI-XVIII asrlarda Hindiston va O'rta Osiyo davlatlari orasida har tomonlama o'rnatilgan diplomatik munosabatlar edi. Yana bir sabab Hind zaminidagi boburiyodalarning o'qimishli kishilar sifatida ota yurtlariga qiziqishlaridir. Boburiyodalarning bu qiziqishu intilishlarining natijasida

Hindiston va O'rta Osiyo madaniy, adabiy aloqalari boshqa sohalar singari yanada rivoj topdi.

Jahongirdan so'ng o'g'li Shohjahon ham aloqalarni, xususan, Buxoro xonligi bilan yaxshi munosabatlarni saqlab qoldi. Yuqorida e'tirof etganimizdek, Shohjahon ham saroy an'anasiga ko'ra chig'atoy turkiysini yaxshi bilgan. Garchi uning hukmronligi davrida adabiy muhitda ham forsiy, sanskrit tillarining yetakchiligi ko'zga tashlansa-da, lekin turkiyda ijod etuvchi ijodkorlar ham bor edi. Jumladan, forsiy va turkiyda ijod etgan shoir Diydaning devoni ham shu davrga taalluqli deb taxmin qilinadi. [7, 1993: 39]

Boburiy zoda hukmdorlardan Shohjahonning o'g'li Avrangzeb Olamgir (1658-1707) davrida turkiy tilning mavqeyi nisbatan biroz yuqoriladi. Bu davr turkiy adabiyot haqida adabiyotshunos N.Nizomiddinov shunday yozadi: "Avrangzeb va uning vorislari davrida ham turkiy tili Hindiston adabiyotida o'z mavqeini yo'qotmagan. Boburiylar xonodonga mansub Mirza Ali Baxt Azfariy yoki Yusuf Faryobiy, Inshoollohon, Johilalar ba'zan forsiyda yozsalar, ba'zan turkiy tiliga murojaat qilishni ma'qul ko'rganlar". [7, 1993]

Avrangzeb davrida yaratilgan lug'atlar, mazkur tilda yaratilgan asarlar, jumladan, Muhammad Yaqub Changiyning "Kelurnoma", Kaseben Barbalaning "Haft axtar", Fazlullaxonning "Lug'oti turk" kabi turkiy til grammatikasi va leksikografiyasiga bag'ishlangan ilmiy asarlarning vujudga kelishi ham turkiy tilga e'tiborning kuchayganligini ko'rsatadi. Muhammad Yaqub Changiy Avrangzebning ko'rsatmasi bilan "Kelurnoma" yoki "Chig'atoy-forscha lug'at" nomli asarni turkiy tildagi yaratgan. Muhammad Yaqub Changiy o'z kitobiga qisqacha so'zboshi berib, unda eski o'zbek tilining grammatik tuzilishiga bag'ishlangan kitob yaratish g'oyasini unga Avrangzebning o'zi berganligini ta'kidladi. Bu muqaddimada aytilishicha, "Kelurnoma" muallifi Avrangzebning saroy olimi va uning ilm-fan, madaniyat va adabiyot sohasidagi ichki faoliyatining ilhomlantiruvchisi bo'lgan. Changiy o'z homiysi haqida o'zgacha iliqlik bilan gapirib, kitob so'zboshiga unga bag'ishlangan she'riy qasida qo'yadi. Bu qasida eski o'zbek tilida, kitobning so'zboshi esa fors tilida yozilgan. Bularning barchasi Avrangzebning o'zi ham turkiy tilini yaxshi bilganidan dalolat beradi.

Muhammad Musta'idxon Soqiyning 1658-1707-yillar tarixiga bag'ishlangan boburiy podshoh Avrangzeb haqidagi "Ma'osiri Olamgiri" ("Olamgirning xayrli ishlari") asaridagi ma'lumotlardan ham Avrangzeb davrida turkiy tilga bo'lgan rag'bat, munosabat ijobiy bo'lganligini bilish mumkin. Asarning "Odil va dinparvar podshohning sharif va mo'tabar avlodlari zikri" nomli so'nggi qismida podshoh Avrangzebning aksariyat farzandlari turkiy tilni yaxshi bilganligi e'tirof etilgan. Jumladan, to'ng'ich farzandi Muhammad Sultonning "Arabiy, forsiy va turkiy tillarda o'qish va yozishda kamolot darajasiga erishgan"ligi aytilsa, ikkinchi o'g'li Muhammad Muazzam Shohi olamning "Turkiy va forsiy tillarda ham juda chiroyli so'zlab, xar xil xat turlarini yozishda mahorat va ustozlik darajasiga yetgan"ligi e'tirof etiladi. Xuddi shunday Avrangzebning beshinchi o'g'li podshohzoda Muhammad Kombaxsh ham "turkiy tilda va har xil xatlarni yozishda mahorat kasb etgan" shahzoda edi. [6, 2012]

Xulosa qilib aytganda, Boburiylar davri adabiy muhitida turkiy tilning forsiy, hindiy, urdu tillari bilan yonma-yon holatda mavjud bo'lishi Zahiriddin Muhammad Boburning sa'y-harakatlariga bevosita bog'liq edi. Boburiylarning keyingi avlodlari

davri adabiy muhitida turkiy tilning mavqei Bobur, Humoyun, Avrangzeb davridagidek yuqori bo'lmagan bo'lsa-da, butunlay iste'moldan chiqib ketmadi. Saroyda turkiy tilga bo'lgan e'tibor butunlay yo'qolib ketmadi. Bunga sabab boburiy hukmdorlarining ota yurti - Movarounnahr, umuman, O'rta Osiyo bilan aloqalarining yaqinligi, bu o'lkaga bo'lgan qiziqishi, e'tiborida edi. Boburiylar davrida turkiy til bir tekis rivojlanish bosqichida bo'lmasa-da, adabiy muhitda shu tildagi adabiyotning vujudga kelishiga to'sqinlik qilmadi. Natijada XVI asrda turkiy tildagi adabiyot teritoriya jihatdan kengayib, Hindistonda ham yangi bir qatlamni tashkil etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Абдусаттор бин Қосим Лоҳурий. *Мажолисси Жаҳонгирий. Кириш сўз ва изоҳлар муаллифи Ориф Навшоҳий, Мўин Низомий.* -Техрон, “Мероси мактуб”, 2006. – 302 саҳ.

[2]. Алиев Г.Ю. *Персоязычная литература Индии.* – М.: “Наука”, 1968.

[3]. Бекжон И. *Ҳиндистонлик Абдусаттор Лоҳурийнинг “Мажолисси Жаҳонгирий” асари – бобурийлар маданиятига оид манба.*// “Шарқ машъали”, 2018. 3-сон. 23-27-бетлар.

[4]. Гулбаданбегим. *Ҳумоюннома. Заҳриддин Муҳаммад Бобурнинг ўғли-Ҳумоюн подшоҳнинг аҳволи.* -Т.: “Маънавият”, 1998.

[5]. Иномхожаев Р. *Турко-персидское двуязычие в литературной жизни Индии XVI в.* -Т.: “Фан”, 1993. – Б. 210.

[6]. Муҳаммад Мустаъидхон Соқий. *Бобурий подшоҳ Аврангзеб. Маъосири Оламгирий. (Оламгирийнинг хайрли ишлари). форс тили- дан таржима, луғат ва изоҳлар муаллифи Илёс Низомиддинов.* – Т.: «Movarounnahr», 2012.

[7]. Низомиддинов Н. *XVI-XVIII асрларда Ҳиндистон туркийзабон шоирлари адабий мероси.* Фил. фан. номз. дисс. –Тошкент, 1993.

[8]. Низомутдинов И. *Из истории среднеазиатско-индийских отношений (IX—XVIII вв.).* -Т.: “Узбекистан”, 1969.

[9]. Сейди Али Раис. *Миръотул мамолик (Мамлакатлар кўзгуси). Таржимон ва изоҳлар муаллифи Ш.Зуннунова.* -Т.: Ўзфанакадناشر, 1963.